



## QOLUNING IMOM NOFE' MADANIYDAN QILGAN RIVOYATI

**Umarova Nilufar Ulug'bek qizi**

Telefon raqam: +998977728568

E-mail: umarov.s.f@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8371649>

### ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 18-September 2023 yil

Ma'qullandi: 20-September 2023 yil

Nashr qilindi: 23-September 2023 yil

### KEY WORDS

*qiroat, rivoyat, manhaj, Qolun, Nofe', mad, idg'om, imola, taqlil, hamza, tas'hil.*

### ABSTRACT

*Ushbu maqola islomshunoslik sohasining Qur'onshunoslik yo'nalishiga oid bo'lib, unda qiroat ilmi haqida so'z yuritilgan. Xususan, o'nta mutavotir (ishonchli) qiroatlar orasida arab davlatlarida ommalashgan Nofe' qiroati, uning Qolun rivoyati haqidagi ma'lumotlar yoritilgan. Maqolada Qolun rivoyatining o'ziga xos uslublarini tadqiq qilish maqsad qilib qo'yilgan hamda bu maqsadga erishilgan. Maqoladan islomshunoslik, Qur'onshunoslik, manbaashunoslik darslarida, maxsus kurslar, ma'ruza matnlari, o'quv qo'llanma va darsliklar tayyorlashda foydalanish mumkin.*

“Qiroat” so'zi arabcha قَرَأَ fe'lining masdari bo'lib, lug'aviy ma'nosi “o'qish” demakdir. Istilohda esa “Qiroat - Qur'on o'qish ilmi imomlaridan birining Qur'on o'qishda naql va rivoyatga asoslangan holda boshqa imomlardan o'zgacha yo'l tutishi - qiroat qilishidir.

Tilovatda odamlar ularning yo'lga ergashadigan qorilar davri sahobalar zamoniga borib taqaladi. Sahobalardan o'z qiroatlari bilan mashhur bo'lganlari: Ubay ibn Ka'b, Ali ibn Abu Tolib, Zayd ibn Sobit, Abdulloh ibn Mas'ud, Abu Muso Ash'ariy va boshqalar edi. Ulardan turli shaharlardan kelgan ko'plab sahobalar va tobeinlar qiroatni o'rgandilar.

Tobeinlar zamonida, ya'ni hijriy I asrning oxiri, II asrning boshida islom ummati qiroatlarning zabtiga katta ahamiyat berdi va bu ishda peshaqadamga aylandi. Boshqa shar'iy ilmlarni shakllantirgani kabi buni ham ilm sifatida shakllantirdi.

Qiroat imomlari son-sanoqsiz edi. Ularni “Hofizul islom” Abu Abdulloh Zahabiy va undan so'ng “Hofizul qurro” Abul Xayr ibn Jazariylar o'z tabaqotlarida tasniflab chiqdilar.

Imom ibn Jazariy o'zining “An-nashr fil qiroatil ash” asarida aytadi: “Qiroatlarni birinchi bo'lib o'z kitobida jamlagan shaxs - imom Abu Ubayd Qosim ibn Sallomdir (vaf. 224-h). U o'z kitobiga o'n beshta qorini kiritdi. Uning izidan Abu Bakr Ahmad ibn Muso ibn Abbas ibn Mujohid (vaf. 324-h) bordi. U qiroatlarni yettitaga qisqartirgan olimlarning birinchisidir.

Qiroatlarni ta'lif qilish bo'yicha izlanish olib borgan olimlardan keyingisi imom Abu Muhammad Abul Qosim ibn Firruh ash-Shotibiydir (vaf. 590-h). “Shotibiy o'zining “Hirzul amoniy va vajhut tahoniy” nomli asarida imom Abu Amr Doniy (vaf. 444-h)ning yetti qiroat bo'yicha yozilgan “Taysir” asarini nazmga soldi.

Bu sohada ulkan xizmat qilgan olimlardan yana biri Muhammad ibn Muhammad ibn Muhammad ibn Ali ibn Yusuf al-Jazariydir (vaf. 833-h). Uning bu sohada ta'lif etgan ko'plab asarlaridan biri "An-nashr fil qiroatil ash'r" nomli kitobidir. Unda o'nta qiroat imomlarini keltirgan. So'ngra ushbu kitobda kelgan qiroatlarning silsilalarini nazmga solib, "Toyyibatun nashr fil qiroatil ash'r" degan ming baytdan iborat manzuma yozgan.

Uning asarida kelgan o'n mutavotir qiroat imomi va uning roviylari quyidagilardir:

Nofe' Madaniy. Uning ikki roviysi: Qolun va Varsh.

Ibn Kasir Makkiy. Uning ikki roviysi: Bazziy va Qunbul.

Abu Amr Basriy. Uning ikki roviysi: Duriy va Susiy.

Ibn Omir Shomiy. Uning ikki roviysi: Hishom va Ibn Zakvon.

Osim Kufiy. Uning ikki roviysi: Hafs va Shu'ba.

Hamza Kufiy. Uning ikki roviysi: Xalaf va Xallod.

Kisoiy. Uning ikki roviysi: Abu Xoris va Duriy.

Abu Ja'far Yazid ibn Qa'qo. Uning ikki roviysi: Iso ibn Vardon va Jammaoz.

Ya'qub Hazramiy. Uning ikki roviysi: Ruvays va Rovh.

Xalaf ibn Hishom. Uning ikki roviysi: Is'hoq Varroq va Idris Haddod.

Hozirgi kunga kelib islom olamida ushbu qiroatlar ichida eng ommalashgani hamda turli hududlarda tilovat qilinadiganlari to'rttadir. Ular: Hafsnig Osimdan qilgan rivoyati, Varshning Nofe'dan qilgan rivoyati, Qolunning Nofe'dan qilgan rivoyati va Duriyning Abu Amr Basriydan qilgan rivoyatidir.

Qolunning Nofe'dan qilgan rivoyati Liviyada rasmiy qiroat hisoblanadi. Shuningdek, u Tunisning ko'p qismida ham tarqalgan. Ushbu qiroatdagi Mus'haflar Liviya, Tunis va Jazoirida nashr qilinadi.

Qolun

U kishining asl ismi Iso ibn Mino ibn Vardon ibn Iso ibn Abdussomaddir. Ibn Muso deb kunyalangan. Laqabi Qolun. U Madinaning qori va nahvshunoslaridan bo'lgan. Qolun imom Nofe'ning o'gay o'g'li (xotining o'g'li) bo'lib, Nofe'ni mahkam tutgan edi. uning qiroati oliy bo'lgani bois unga imom Nofe' "Qolun" deb laqab bergan. Qolun rum tilida "yaxshi" deganidir.

Qolun hijriy 120-yilda tug'ilib, 150-yilda Nofe'ga Qur'onni o'qib berdi. U aytadi: "Men imom Nofe'ga hisob kitob qilib bo'lmaydigan darajada ko'p o'qib berdim". Nofe' menga: "Kel, mana bu ustunning oldiga o'tir. Men senga Qu'ron o'qib berishlari uchun odam jo'nataman" dedi. Qolun karnayning ovozini eshitmaydigan darajada qattiq kar edi, lekin unga Qur'on o'qib berilsa eshitar edi. Unga qiroat qilishsa, lablariga qarab xatolarini bilar va to'g'irlab qo'yar edi. U kishi 220-yilda vafot etdi.

Qolunning qiroatdagi manhaji (usuli)

Bu kishi o'zining qiroatida o'qigan yoki o'qittirgan vaqtida o'ziga xos uslubi bor edi. Mana bu uning uslubi, yo'lidir:

1 - Anfol va Baroat surasidan tashqari har ikki sura orasida basmalani o'qish. Va u 3 xil ko'rinishda bo'ladi: qat', sakta, vasl. Uning ikkinchi vajhi ham bor bo'lib, u basmalani aytmay ketishlikdir.

2 - agar ko'plik mimi dan keyin harakatlangan harf kelsa, ko'plik mimi zamma bilan sila qilib, ya'ni bir alif cho'zib o'qiladi. Mimdan keyingi harf hamza bo'lsa ham, yoki undan boshqa harf bo'lsa ham farqi yo'q. Shuningdek, ko'plik mimini sukun bilan o'qish vajhi ham bor. Masalan: "يَوْمُنُونَ لَا تُنذِرُهُمْ لَمَّ آمَّءَأَنْذَرْتَهُمْ عَلَيْهِمْ سَوَاءً" (Baqara 6).

Qolun rivoyatida bu borada 4 xil vajah bor:

1) ko'plik mimini sila qilib, mad munfasilni qasr qilib o'qish;

2) ko'plik mimini sila qilib, mad munfasilni tavassut qilib o'qish;

3) ko'plik mimini sukun qilib, mad munfasilni qasr qilib o'qish;

4) ko'plik mimini sukun qilib, mad munfasilni tavassut qilib o'qish.

3 - "ha" zamirlarning ba'zilar ixtilos bilan o'qiladi, ya'ni harakati komil o'qilmaydi. Masalan: "إِلَيْكَ يُودَى" (Oli Imron 78), "إِلَيْهِمْ فَأَلْقَهُ" (Naml 28), "وَأَخَاهُ أَرْجَاهُ" (A'rof 111).

4 - mad munfasil qasr (2 harakat miqdorida cho'zib) qilib ham o'qiladi, tavassut (4 harakat miqdorida cho'zib) qilib ham o'qiladi. Tavassut madi muttasil qilib o'qiladi.

5 - bitta so'zda kelgan ikki hamzaning birinchisi o'rta alifni kirgizish bilan cho'zib o'qiladi. ikkinchisi esa tas'hil, ya'ni yengil qilib (a va ha orasida) o'qiladi. Bunda ikkinchi hamza fatha bo'ladimi, kasra bo'ladimi yoki zamma bo'ladimi farqi yo'q. Masalan: "ءَأَنْتُمْ" (Baqara 140), "أَوْ تَبَيَّنْتُمْ", "أَنْتُمْ".

6 - ikki so'z tarkibidagi ikki hamza bir biriga yo'liqsa, ya'ni bunda birinchi hamza birinchi so'zning oxirida, ikkinchi hamza ikkinchi so'zning boshida kelsa: agar u ikkala hamza fatha bo'lsa, "أَنْشُرَهُ شَاءَ إِذَا تُمْ" (Abasa 22) birinchi hamza qiroatda tushib ketadi hamda (hamzadan oldin kelgan mad) qasr yoki tavassut bilan o'qiladi. Agar u ikki hamza kasra "صَلِّقِينَ كُنْتُمْ إِنْ هَلَوْلَاءَ" (Baqara 31) yoki zamma "يَنْ مَبِّ ضَلَّالٍ فِي أَوْلَيْكَ َ أَوْلِيَاءَ ذُوِيَّةٍ مِنْ لَهُ وَلَيْسَ" (Ahqof 32) bo'lsa, birinchi hamza tas'hil qilinib, qasr yoki tavassut o'qiladi. Har uchala holatda ham ikkinchi hamza tahqiq o'qiladi.

Ikki so'z tarkibida kelgan ikki hamza turli xil harakatli bo'lsa: birinchi hamza fathali, ikkinchi hamza kasrali bo'lsa, "يُوسُفُ إِخْوَةٌ وَجَاءَ" (Yusuf 58) unda ikkinchi hamza tas'hil qilinadi. Agar birinchisi fathali, ikkinchisi zammali bo'lsa "رَسُولُهَا أُمَّةٌ جَاءَ مَا كَلَّ" (Mu'minun 44) unda ham ikkinchi hamza tas'hil qilinadi.

Endi, birinchi hamza kasrali, ikkinchisi fathali bo'lsa, ikkinchi hamza xolis ya harfiga aylantirib yuboriladi: "وَرَدُّوْهَا مَا ءَالِهَةٌ هَلَوْلَاءَ كَانَ لَوْ".

Agar birinchi hamza zammali, ikkinchisi fathali bo'lsa, ikkinchi hamza xolis vov harfiga aylantirib yuboriladi: "بَدُّوْهُمْ أَصْبَنَهُمْ نَشَاءَ لَوْ" (A'rof 100).

Agar birinchi hamza zammali, ikkinchisi kasrali bo'lsa, ikkinchi hamza tas'hil qilinadi yoki xolis kasrali vov harfiga aylantirib yuboriladi: "مُسْتَقِيمٌ صِرَاطٍ إِلَىٰ يَشَاءَ مَنْ يَهْدَى" (Baqara 142).

7 - sukunli hamza o'zidan avval kelayotgan harakatning jinsiga mos mad harfiga aylantirib yuboriladi: "وَمَأْجُوجَ يَأْجُوجَ" (Kahf va Anbiyo), "مُؤَصَّدَةٌ" (Humaza 8 va Balad 20).

8 - Yunus surasida ikki o'rinda kelgan "الان" so'zidagi hamzaning harakati o'zidan oldingi harfga ko'chiriladi va hamza hazf qilinadi: "تَسْتَعْجِلُونَ بِهٖ كُنْتُمْ وَقَدْ ءَأَلَّيْنَا" (Yunus 51), "قَبْلَ عَصِيَّتٍ وَقَدْ ءَأَلَّيْنَا" (Yunus 91). Najm surasidagi "الأولى" so'zidagi hamzaning harakati ham o'zidan avvalgi harfga ko'chirilib, hamza hazf qilinadi: "الأولى عَادًا أَهْلَكَ وَأَنَّهُ" (Najm 50). Shuningdek, Qasos surasidagi "رَدَاءٌ" kalimasi ham shunday: "يُصَدِّقُنِي رَدَاءًا مَعِيَ فَأَرْسَلْهُ" (Qasos 34).

9 - zal harfi ta harfiga idg'om qilinadi: "أَتَّخَذْتُمْ" (Josiya 35), "وَأَخَذْتُمْ" (Oli Imron 81), "هُمُ أَخَذَتْ" (Haj 44), "أَخَذَتْ" (Yunus 24).

10 - "فَأَش" lafzidagi alif Qur'onning hamma o'rnida xilofsiz taqlil qilinadi. Tavba surasi "فَأَش" oyatidagi "هَارٍ" lafzi esa imola qilinadi. Shu so'zdan boshqa Qur'onning hech qayerida imola yo'q.

11 - agar izofa "ya"sidan keyin fathali: "أَعْلَمَ إِيَّيْ" (Baqara 33), yoki kasrali: "أَنْتَ إِيَّاكَ َ مِئِي فَتَقَبَّلْ"

(Oli Imron 35), yoki zammali: “أُرِيدُ إِلَيْكَ” (Moida 29) qat’iy hamza kelsa, yoki aniqlik artikli kelsa: “الظَّالِمِينَ عَهْدِي يَبَالُ لَا قَالَ” (Baqara 124), yoki vaslali hamza kelsa: “أَحْمَدُ أَسْمُهُ بَعْدِي مِنْ” (Sof 6) izofa “ya” siga fatha beriladi.

12 - ba’zi ziyoda “ya”lari Mus’hafga yozilgan bo’ladi: “نَبِّغْ كُنَّا مَا ذَلِكَ َ” (Kahf 64), “يَسْرُ إِذَا وَاللَّيْلِ” (Fajr 3) lekin qiroatda vasl holatdagina o’qiladi.

Bular Qolunning Nofe’dan qilgan rivoyatidagi umumiy manhajlardir. Bularning ostida yana ko’plab juz’iy qoidalar ham bor.

Xulosa qilib aytganda, Qolunning Nofe’dan qilgan rivoyati arab dunyosining shimoliy qismlarida tarqalgan. u Liviyada rasmiy qiroat bo’lib, Tunisda ham undan keng miqyosda foydalanishadi. Ushbu qiroat Nofe’ning boshqa bir roviysi - Varsh qiroatidan ancha soddaroq hisoblanadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Odinaxon Muhammad Yusuf. Mufasssal tajvid. - T.: Hilol-nashr, 2016. - B. 16.
2. Ibn Jarir Tabariy. Tafsiri Tabariy. - Bayrut: Dorul fikr, 1405-h. - J. 1. - 65.
3. Ayman Rushdiy Suvayd. Tartil asoslari (Al-Muqaddima al-Jazariyya sharhi). Jahongir qori Ne’matov tarjimasi.- T.: G’ofur G’ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2018. - B. 37.
4. Dr. Ahmad Xolid Shukuriy. Muqaddimat fi ilmil qiroat. - Ommon. Dorul Ammor, 2001. - B. - 64.
5. Mahmud Xalil al-Husoriy. Rivayat Qolun an Nafe’. - Qohira. Maktabatus sunnah, 2003. - B. - 8.

INNOVATIVE  
ACADEMY